



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 7 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 7

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-7>

Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief Editor:

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxanova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirazov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

|                                                                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Sayfullayeva Mahbuba Azim qizi</b>                                                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INGLIZ HUQUQINI JORIY ETISH VA QO'LLASHNING SHARTLARI VA ISTIQBOLLARI.....                                                                                          | 5   |
| <b>2. Мамадалиев Бахтиёр Зокирович</b>                                                                                                                                                         |     |
| ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДА ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....                                                              | 13  |
| <b>3. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich</b>                                                                                                                                                    |     |
| JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SUBYEKTLARI ORASIDA JAVOBGARLIKNI SOHA, HUDUD VA YO'NALISHLAR BO'YICHA BIRIKTIRISH VA AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI.....                                          | 21  |
| <b>4. Axatov Shuxrat Shoim o'g'li</b>                                                                                                                                                          |     |
| SUN'IY INTELLEKTDAN JINOYAT SODIR ETISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISHNING JINOIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....                                                                                       | 30  |
| <b>5. Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li</b>                                                                                                                                                     |     |
| SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI KIBER-TA'QIB (CYBERSTALKING)NING JINOYAT-HUQUQIY TABIATI: MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR VA XORIJIY TAJRIBANING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI.....  | 36  |
| <b>6. Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li</b>                                                                                                                                                 |     |
| JINOYAT TARKIBINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV BELGILARIGA KO'RA NORMALAR RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI.....                                                                                         | 47  |
| <b>7. Матмуратов Батир Джолдасович</b>                                                                                                                                                         |     |
| ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИ ЖИНОЯТ КОДЕКСИГА ЖАРИМА ЖАЗОСИНИ АСОСИЙ ЖАЗОГА ҚЎШИМЧА ҚИЛИБ КИРИТИШ ВА УНИ КОРРУПЦИЯ ЖИНОЯТЛАРИГА КЕНГ ЖОРИЙ ЭТИШ ЗАРУРАТИ.....                              | 58  |
| <b>8. Noraliyev Turg'un Eshmurod o'g'li</b>                                                                                                                                                    |     |
| TEKNOLOGIK TARAQQIYOT SHAROITIDA JINOYAT PREDMETINING EVOLYUTSIYASI: SUN'IY INTELLEKT, KRIPTO-AKTIVLAR, VIRTUAL MULK VA AXBOROT JINOIY TAJOVUZ OBYEKTI SIFATIDA.....                           | 66  |
| <b>9. Утаев Хусниддин Хуррамович</b>                                                                                                                                                           |     |
| РАҚАМЛИ МУЛКИЙ ҚИЛМИШЛАРНИ ТУРДОШ ЖИНОЯТ ТАРКИБЛАРИДАН ФАРҚЛАШНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ МОДЕЛИ.....                                                                                                  | 77  |
| <b>10. Махмадиярова Хумора Ўктам кизи</b>                                                                                                                                                      |     |
| БИРИНЧИ ИНСТАНЦИЯ СУДЛАРИДА ИШ ЮРИТИШДА ТОРТИШУВ ПРИНЦИПИНИНГ АҲАМИЯТИНИ КУЧАЙТИРИШ.....                                                                                                       | 85  |
| <b>11. Архангельская Екатерина Константиновна</b>                                                                                                                                              |     |
| «ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ОТНОШЕНИИ ИНОСТРАНЦЕВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ДИСТАНЦИОННЫЙ ОПРОС С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ».....                                                         | 84  |
| <b>12. Sattarov Ja'surbek Avazbekovich</b>                                                                                                                                                     |     |
| AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIKKA QARSHI PROFILAKTIKANING YANGI MODELI: MAHALLABAY YONDASHUV, ANTIFROD MEKANIZMLAR VA VIKTIMOLOGIK HIMOYA ISTIQBOLLARI..... | 103 |



**Noraliyev Turg'un Eshmurod o'g'li,**

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot  
instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: noraliyevturgun77@gmail.com

## **ТЕХНОЛОГИК ТАРАҚҚИЙОТ ШАРОИТИДА ЖИНОЯТ ПРЕДМЕТНИНГ ЕВОЛЮТСИЯСИ: СУН'ИЙ ИНТЕЛЛЕКТ, КРИПТО-АКТИВЛАР, ВИРТУАЛ МУЛК ВА АХБОРОТ ЖИНОИЙ ТАЖОВУЗ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА**

**For citation:** Noraliyev Turgun Eshmurod ugli. NECESSITY OF ADDING A FINE PUNISHMENT TO THE MAIN PUNISHMENT IN THE NEW CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND WIDELY IMPLEMENTING IT FOR CORRUPTION CRIMES. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 7.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235462>

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada global texnologik taraqqiyot va raqamli transformatsiya sharoitida jinoyat huquqi sohasida jinoyat predmetining huquqiy tabiati hamda uning evolyutsion o'zgarishlari kompleks tarzda ilmiy tahlil qilingan. Xususan, sun'iy intellekt tizimlari, kripto-aktivlar, virtual mulk va axborotning mustaqil jinoyat predmeti sifatidagi o'rni hamda ijtimoiy-huquqiy maqomi ochib berilgan. Muallif an'anaviy moddiy jinoyat predmeti tushunchasining raqamli makonga ko'chishi munosabati bilan yuzaga kelayotgan nazariy va amaliy muammolarni xorijiy davlatlar tajribasi hamda milliy sud amaliyoti misolida tadqiq etadi. Shu bilan birga, yaqin kelajakda paydo bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lgan neyro-ma'lumotlar, metaolamdagi ko'chmas mulk va aktivlar, muhim infratuzilma obyektlarining kibernetik analoglari hamda genomik ma'lumotlarning jinoiy tajovuz obyektiga aylanish xavflari ilmiy prognoz qilingan. Amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish bo'yicha qator asoslantirilgan, aniq qonunchilik takliflari ilgari surilgan. Kiberjinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, fuqarolarning raqamli mulkiy huquqlarini ishonchli muhofaza qilish va jinoyat qonunchiligida innovatsion huquqiy mexanizmlarni joriy etish masalalari alohida ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat predmeti, sun'iy intellekt, kripto-aktivlar, virtual mulk, axborot xavfsizligi, kiberjinoyatchilik, raqamli huquq, metaolam, kibernetik analog, jinoyat qonunchiligi, raqamli iqtisodiyot, jinoiy javobgarlik, neyro-axborot, genomik ma'lumotlar, raqamli mulk.

**Норалиев Тургун Эшмурод угли,**

Самостоятельный соискатель Исследовательского  
института криминологии Республики Узбекистан

E-mail: noraliyevturgun77@gmail.com

## **ЭВОЛЮЦИЯ ПРЕДМЕТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА: ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ, КРИПТОАКТИВЫ,**

## ВИРТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ И ИНФОРМАЦИЯ КАК ОБЪЕКТЫ ПРЕСТУПНОГО ПОСЯГАТЕЛЬСТВА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе комплексного научного подхода анализируется правовая природа и эволюционные изменения предмета преступления в уголовном праве в условиях глобального технологического прогресса и цифровой трансформации. В частности, раскрывается роль и социально-правовой статус систем искусственного интеллекта, криптоактивов, виртуальной собственности и информации как самостоятельных предметов преступления. Автор исследует теоретические и практические проблемы, возникающие в связи с переходом традиционного понятия материального предмета преступления в цифровое пространство, на примере опыта зарубежных стран и национальной судебной практики. Кроме того, научно прогнозируются риски превращения в объекты преступного посягательства таких новых явлений, как нейроданные, недвижимость и активы в метавселенной, кибернетические аналоги критически важных объектов инфраструктуры и геномная информация. На основе результатов опроса, проведенного среди практических работников, выдвинут ряд обоснованных, конкретных законодательных предложений по совершенствованию Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется вопросам правильной квалификации киберпреступлений, надежной защиты цифровых имущественных прав граждан и внедрения инновационных правовых механизмов в уголовное законодательство.

**Ключевые слова:** предмет преступления, искусственный интеллект, криптоактивы, виртуальная собственность, информационная безопасность, киберпреступность, цифровое право, метавселенная, кибернетический аналог, уголовное законодательство, цифровая экономика, уголовная ответственность, нейроинформация, геномные данные, цифровая собственность.

**Noraliyev Turgun Eshmurod ugli,**

Independent researcher at the Research Institute  
of Criminology of the Republic of Uzbekistan

E-mail: noraliyevturgun77@gmail.com

## THE EVOLUTION OF THE SUBJECT OF CRIME IN THE CONTEXT OF TECHNOLOGICAL PROGRESS: ARTIFICIAL INTELLIGENCE, CRYPTO-ASSETS, VIRTUAL PROPERTY, AND INFORMATION AS OBJECTS OF CRIMINAL INFRINGEMENT

### ANNOTATION

This article provides a comprehensive scientific analysis of the legal nature and evolutionary changes of the subject of crime in criminal law in the context of global technological progress and digital transformation. In particular, the role and socio-legal status of artificial intelligence systems, crypto-assets, virtual property, and information as independent subjects of crime are revealed. The author investigates the theoretical and practical problems arising from the transition of the traditional concept of a material subject of crime into the digital space, using the experience of foreign countries and national judicial practice. At the same time, the article scientifically predicts the risks of neuro-data, real estate and assets in the metaverse, cybernetic analogs of critical infrastructure facilities, and genomic data becoming objects of criminal infringement in the near future. Based on the results of a survey conducted among practitioners, a number of well-founded, specific legislative proposals for improving the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan have been put forward. Special attention is paid to the proper qualification of cybercrimes, the reliable protection of citizens' digital property rights, and the introduction of innovative legal mechanisms into criminal legislation.

**Keywords:** subject of crime, artificial intelligence, crypto-assets, virtual property, information security, cybercrime, digital law, metaverse, cybernetic analog, criminal legislation, digital economy, criminal liability, neuro-information, genomic data, digital property.



Insoniyat sivilizatsiyasining bugungi taraqqiyot bosqichi globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning jadal raqamlashuviga olib keldi. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi, blokcheyn tizimlarining moliya sektoriga kirib kelishi va metakoinotning shakllanishi an'anaviy huquqiy tushunchalarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Raqamli makonda shakllanayotgan yangidan-yangi ne'matlarning muhim iqtisodiy qadr-qimmat kasb etayotgani ularni jinoiy tajovuzlarning bevosita nishoniga aylantirdi. Shu o'rinda, jinoyat huquqi fanining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblangan «jinoyat predmeti» tushunchasini zamon talablariga moslashtirish, uni faqat moddiy ashyolar bilan cheklamay, balki raqamli aktivlarni ham qamrab oluvchi keng qamrovli institut sifatida rivojlantirish zarurati yuzaga keldi.

Zamonaviy jinoyat huquqida ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan, raqamli transformatsiya va texnologik taraqqiyot mahsuli bo'lgan yangi turdagi ne'matlarning jinoyat-huquqiy maqomini aniqlash masalasiga e'tibor qaratish talab etiladi. Ijtimoiy munosabatlarning virtual makonga ko'chishi an'anaviy jinoyat predmeti tushunchasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Avvalgi paragraflarda jinoyat predmetining an'anaviy tushunchasi, uning jinoyat obyekti, jabrlanuvchi hamda jinoyat quroli va vositalari bilan o'zaro nisbati tizimli tahlil qilindi. Navbatdagi bosqichda biz texnologik taraqqiyot sharoitida jinoyat predmetining evolyutsiyasiga, xususan, sun'iy intellekt, kripto-aktivlar, virtual mulk hamda axborotning mustaqil jinoyat predmeti sifatidagi o'rniga, shuningdek, kelajakda kutilayotgan yangi turdagi predmetlar tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan sun'iy intellekt jinoyat huquqida o'ziga xos turni yuzaga keltirmoqda. An'anaviy qarashlarga ko'ra, sun'iy intellekt ko'proq jinoyat sodir etishvositasi yoki quroli sifatida talqin qilinadi. Biroq, masalaga mulkiy va intellektual qimmatlik nuqtai nazaridan yondashsak, sun'iy intellektning o'zi ham bevosita jinoiy tajovuz predmetiga aylanishi mumkinligi oydinlashadi.

Rus tadqiqotchisi K.V. Shabalina o'z izlanishlarida ta'kidlashicha, sun'iy intellekt nomoddiy raqamli tuzilma bo'lib, jinoyat predmeti sifatida faqatgina sun'iy intellekt xususiyatiga ega bo'lgan dasturiy ta'minot yoki ushbu dastur yozilgan fizik ma'lumot tashuvchilar (masalan, qattiq disklar) bo'lganda yuzaga kelishi mumkin [6. B. 404.]. Biz mazkur muallifning fikrlari borasida shuni ta'kidlaymizki, bunday cheklovchi yondashuv muammoning mohiyatini to'liq ochib bermaydi, zero sun'iy intellektni shunchaki «dasturiy ta'minot» yoki uning fizik tashuvchisi darajasiga tushirib qo'yish uning real iqtisodiy va intellektual mohiyatini inkor etadi. Shu o'rinda qayd etish joizki, bizning nazarimizda, sun'iy intellekt tizimlari, xususan, ularning o'zini o'zi o'qitish algoritmlari va neyrotarmoq modellari (masalan, Large Language Models) moliyaviy investitsiyalar, ilmiy izlanishlar va terabaytlab ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida yaratiladigan noyob intellektual mahsulotdir. Shu bois, agar shaxs raqobatchi kompaniyaning sun'iy intellekt algoritmini tarmoq orqali ruxsatsiz ko'chirib olsa yoki unga zararli kod kiritib, tizimning algoritmik mantig'ini izdan chiqarsa, tajovuz bevosita moddiy tashuvchiga (jismoniy uskunaga) emas, balki aynan raqamli intellektual mulk obyektiga – sun'iy intellekt modeliga qaratilgan bo'ladi. Bunday holatda sun'iy intellekt tizimi jinoyat predmeti sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellektni jinoyat predmeti sifatida tan olish va uni jinoyatning qurol va vositalaridan farqlash masalasida xorijiy olimlarning qarashlari xilma-xildir. Xususan, isroillik huquqshunos olim Hallevy Gabriel o'zining sun'iy intellektning jinoiy javobgarligi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida [11.] sun'iy intellektni o'zining iqtisodiy qadr-qimmatini sababli mulkiy tajovuzlar obyekti deb hisoblaydi. Shuningdek, xitoylik olim Liu Xianquan (Lyu Syansyuan) o'zining ilmiy izlanishlarida [12. B. 142.] sun'iy intellekt tizimlarini intellektual mulk hamda ma'lumotlar xavfsizligi nuqtai nazaridan mustaqil jinoyat predmeti sifatida e'tirof etishni taklif etadi. Nazarimizda, ushbu olimlarning fikrlaridan kelib chiqilsa, sun'iy intellekt tizimlarining murakkabligi va iqtisodiy qiymatini inobatga olgan holda, ularni mustaqil jinoyat predmeti sifatida tan olish maqsadga muvofiqdir. Mazkur to'xtamimiz jinoiy odil sudlov sohasida faoliyat yurituvchi 450 nafar amaliyot xodimlari (sudyalar, tergovchilar, advokatlar) ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bilan ham tasdiqlanadi. So'rovda qatnashgan respondentlarning 78 foizi sun'iy intellekt algoritmlariga qilingan tajovuzlarni amaldagi jinoyat qonunchiligi doirasida kvalifikatsiya qilishda

bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatib, uni mustaqil jinoyat predmeti sifatida qonunda mustahkamlashni qo'llab-quvvatlagan.

Shu bilan birga, ushbu nazariy qarashlarimiz sud amaliyotida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Jumladan, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2025-yildagi hukmiga ko'ra, sudlanuvchi M.A. o'zi ishlab kelgan IT-kompaniyaning serveriga ruxsatsiz kirib, kompaniya tomonidan tibbiy tashxis qo'yish uchun maxsus yaratilgan va o'qitilgan sun'iy intellekt neyrotarmog'ining asosiy algoritmlarini va ma'lumotlar bazasini xufiyona ko'chirib olib, raqobatchi firmaga sotgan. Sud ushbu holatda sudlanuvchini O'zbekiston Respublikasi JKning 191-moddasi (Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish) hamda 278<sup>1</sup>-moddasi (Axborotlashtirish qoidalarini buzish) bilan aybdor deb topgan hamda sun'iy intellekt algoritmini bevosita jinoyat predmeti sifatida baholab, kompaniyaga yetkazilgan zararni aynan mazkur algoritmni ishlab chiqish uchun ketgan xarajatlar asosida hisoblagan [7]. Ko'rinib turibdiki, sud amaliyoti sun'iy intellektni real iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan jinoyat predmeti sifatida qabul qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosi doirasida ko'rib chiqilsa, ushbu qarorning 9-bandida ta'lim va ilmiy muassasalar, shuningdek, ichki ishlar organlari oldiga mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish, «E-ijtimoiy profilaktika» va «E-nizoli oila» kabi axborot tizimlarini yaratish vazifasi qo'yilgan. Ushbu tizimlar katta ma'lumotlarni qayta ishlash va jinoyatchilikni prognoz qilish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanadi. Mahallalardagi mavjud kriminogen vaziyatni barvaqt aniqlash hamda jinoyatlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash muhimdir.

Biz muhokama qiladigan navbatdagi masala – bu jinoyat predmeti sifatida kriptovalyutalar va kripto-aktivlarning jinoyat-huquqiy maqomini aniqlashdan iborat. Bugungi kunda kripto-aktivlar global moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq, jinoyat huquqi fanida ularning predmeti borasidagi bahslar hamon tingani yo'q.

Olimlar A.A. Kulikova va R.D. Jmurko o'z tadqiqotlarida kriptovalyutalarning huquqiy tabiati haligacha munozarali ekanligini, uni yoki pul surrogati, yoki maxsus huquqiy rejimdagi alohida kategoriya sifatida baholash mumkinligini tahlil qilib, kripto-aktivlarni «pul surrogati» sifatida noqonuniy deb topishni yoki ularning aylanmasini to'liq taqiqlab, jinoiy javobgarlik belgilashni taklif qiladilar [3. B. 376.]. Ushbu olimlar «pul surrogati» deganda o'zida rasmiy to'lov vositasi xususiyatlarini aks ettirmaydigan, davlat Markaziy banki tomonidan emissiya qilinmaydigan hamda qonuniy to'lov kuchi sifatidagi kafolatga ega bo'lmagan, biroq muayyan doiradagi shaxslar o'rtasida to'lov vositasi sifatida norasmiy qo'llaniladigan moliyaviy vositalarni nazarda tutishmoqda. Ularning fikricha, bunday nazoratsiz vositalar davlatning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi. Biz mazkur mualliflarning cheklashga asoslangan pozitsiyasi bilan kelisha olmaymiz. Bizningcha, taqiqlash yo'li raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi hamda jinoyatchilikni yashirin (xufiyona) tus olishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar aylanmasi qonunan ruxsat etilgan va davlat tomonidan tartibga solinadi. Shundan kelib chiqib, kripto-aktivlarni noqonuniy pul surrogati emas, balki mulkiy huquqlar va iqtisodiy qiymatni o'zida ifoda etuvchi mustaqil jinoyat predmeti sifatida e'tirof etish zarur.

Ushbu pozitsiyani boshqa olimlar O.A. Naumenko va N.A. Butyayeva ham qo'llab-quvvatlab, kriptovalyutani iqtisodiy jinoyatlar, xususan, o'g'rilik va firibgarlikning predmeti sifatida tan olish fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash uchun muhimligini ta'kidlaydilar [4. B. 50.]. Shuningdek, N.B. Adjiyev kriptoinvestorlarning aktivlariga noqonuniy tajovuzlar ortib borayotganini, davlat bunday ijtimoiy xavfli qilmishlarni e'tiborsiz qoldirmasligi kerakligini va kriptovalyutani mulkka qarshi jinoyatlar predmeti deb topish uchun qonunchilik bazasini shakllantirish lozimligini qayd etadi [5. B. 2.].

Bizning fikrimizcha, aybdor shaxs o'zganing elektron kripto-hamyoniga login va parollarni buzish orqali kirib, undagi Bitkoin (Bitcoin) yoki USDT kabi aktivlarni o'zlashtirganda, u shunchaki



raqamli kodlarni emas, balki aniq bozor qiymatiga ega bo'lgan, insonning mehnati va real pullari evaziga sotib olingan mulkni talon-toraj qiladi. Kripto-aktivlar o'zlarining blokcheyn texnologiyasiga asoslanganligi, markazlashmaganligi va anonimligi bilan ajralib tursa-da, ularning iqtisodiy funksiyasi an'anaviy mulkdan qolishmaydi. Ayni paytda ushbu nazariy qarashlarning sud amaliyotidagi tasdig'ini topayotganligini ko'rish mumkin. Xususan, jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod tuman sudining hukmida aynan kripto-aktivlar bilan bog'liq jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Hukmga ko'ra, sudlanuvchi fuqaroning ishonchiga kirib, fishing havolasi orqali uning mobil telefonidagi «Binance» kripto-birjasi ilovasiga kirish huquqini qo'lga kiritgan va jami 5000 AQSh dollariga teng bo'lgan kripto-aktivlarni o'zining hamyoniga o'tkazib olgan. Sud bu holatda kripto-aktivlarni real moddiy zarar manbai sifatida baholab, sudlanuvchining harakatlarini firibgarlik (JK 168-modda) va Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish (JK 278<sup>2</sup>-modda) deb kvalifikatsiya qilgan hamda yetkazilgan zararni kripto-aktivlarning o'g'irlangan kundagi birja kursi bo'yicha hisoblagan [8]. Ushbu misol shuni ko'rsatadiki, sudlarimiz kripto-aktivlarni to'laqonli mulkiy jinoyat predmeti sifatida qabul qilmoqda, biroq bu holat Jinoyat kodeksida o'z qonuniy ifodasini topishi shart.

O'z navbatida, kriptovalyutalar va kripto-aktivlarni jinoyat predmeti sifatida baholash borasida Buyuk britaniyalik olimlar Fox David (Foks Devid) va Green Sarah (Grin Sara) o'zlarining tadqiqotlarida [13. B. 45.] kripto-aktivlarni raqamli mulk sifatida baholab, ularni fuqarolik va jinoyat huquqi doirasida qonunga xilof ravishda egallash kabi qilmishlarning predmeti sifatida e'tirof etish zaruriyatini ilmiy jihatdan isbotlab berganlar. Bizningcha ham, kripto-aktivlar o'zining aniq iqtisodiy qiymatiga ega bo'lganligi uchun jinoyat huquqida mulk tushunchasining kengaytirilgan talqini doirasida mustaqil jinoyat predmeti hisoblanishi zarur. Ayni paytda mazkur holat o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan ham o'z tasdig'ini topadi. So'rovda ishtirok etgan mutaxassislarning 82 foizi amaliyotda kripto-aktivlarni o'zlashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda qonunchilikda aniq normalar yo'qligi sababli qiyinchiliklarga duch kelayotganini va ushbu ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus normalar zarurligini ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarori doirasida mahallalarda «Ijtimoiy profilaktika haftaligi»ni o'tkazishda yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida kripto-firibgarliklarning oldini olish, ularga tez boyib ketishni va'da qiluvchi soxta kripto-loyihalardan saqlanish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish belgilangan vazifalar bilan bevosita hamohangdir. Demak, kripto-aktivlarning jinoyat predmeti sifatidagi huquqiy maqomini aniq va tegishli tartibda belgilash nafaqat nazariy jihatdan, balki bevosita amaliyotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari va tergov organlari xodimlariga virtual makonda sodir etilayotgan firibgarlik hamda o'zlashtirish jinoyatlarini barvaqt aniqlash, ularni to'g'ri huquqiy kvalifikatsiya qilish va sodir etilishiga olib keluvchi asl omillarni tahlil etish uchun huquqiy hamda metodologik baza yaratib beradi. Natijada, jamiyatda axborot-raqamli xavfsizlikni ta'minlash va fuqarolarning raqamli mulkiy huquqlarini himoya qilishning yaxlit, manzilli va uzluksiz mexanizmi shakllanadi.

Navbatdagi muhokama qilish lozim bo'lgan masala virtual mulkning jinoyat predmeti sifatidagi baholash masalasi hisoblanadi. Garchi hozirgi kunda tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi kripto-aktivlardan tashqari, o'ziga xos bo'lgan yana bir yangi ne'mat turi – «virtual mulk»ni yuzaga keltirmoqda. Virtual mulk deganda biz onlayn o'yinlardagi artefaktlar (qurol-yarog'lar, qahramonlar), ijtimoiy tarmoqlardagi ko'p kuzatuvchiga ega bo'lgan akkauntlar va kanallar, domen nomlari va boshqa raqamli aktivlarni tushunamiz. Ushbu ne'matlar blokcheynga asoslanmagan bo'lsa-da, bozorda real talab va taklifga, demakki, iqtisodiy qiymatga ega.

Virtual mulkni jinoyat predmeti sifatida baholash masalasida AQShlik olim Fairfield Joshua A.T. (Ferfild Joshua) o'zining virtual mulkka oid tadqiqotida [14] raqamli obyektlarning iqtisodiy foydaliligiga e'tibor qaratib, ularni xuddi moddiy mulk kabi talon-toraj jinoyatlari doirasida himoya qilish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, AQShlik yana bir olim Lastowka Greg (Lastovka Greg) ham virtual olam qonuniyatlarini tahlil qilib, o'yin artefaktlari va ijtimoiy tarmoq akkauntlari mulk huquqi obyekti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi [15]. Bizning xulosamizga ko'ra, virtual mulk bozorda shakllangan talab va taklifga ega bo'lgan iqtisodiy ne'mat sifatida jinoyat predmeti

darajasiga kiritilishi lozim. Bu borada 500 nafar huquqshunos va IT sohasi mutaxassisleri o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovi shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 85 foizi akkauntlar, domen nomlari va virtual artefaktlarga nisbatan sodir etilgan tajovuzlarni an'anaviy o'g'rilik yoki firibgarlik kabi mulkiy jinoyatlar sifatida kvalifikatsiya qilishni qonunchilikda mustahkamlashni ma'qullagan.

Biroq, shu bilan birga, an'anaviy yondashuv tarafdorlari virtual mulkni (masalan, Telegram kanalini yoki Instagram akkauntini) shunchaki xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasidagi foydalanish huquqi deb hisoblaydilar va ularni talon-toraj predmeti bo'la olmaydi degan fikrni ilgari suradilar. Zero, bizningcha, mazkur yondashuv zamonaviy raqamli iqtisodiyotning obyektiv voqeligini to'laqonli aks ettira olmaydi. Chunki virtual makondagi obyektlar qonuniy muomalada bo'lib, ularning real iqtisodiy bahosi, bozor qiymati va oldi-sotdi jarayonlari amalda keng shakllanib ulgurgan. Bunday ne'matlarni shunchaki xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasidagi huquq sifatida cheklash va ularni jinoyat qonunchiligi muhofazasidan chetda qoldirish javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga ham, jabrlanuvchining buzilgan mulkiy huquqlarini tiklash maqsadlariga ham ziddir. Yuz minglab kuzatuvchilarga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoq kanali uning egasiga reklama orqali har oy millionlab so'm daromad keltiradi. Agar bu toifadagi kiberjinoyatni sodir etayotgan shaxs ushbu kanalni login va parollarni o'g'irlash orqali tortib olsa va o'zining nomiga o'tkazib olsa, u asl egasini real daromad manbaidan mahrum qiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq kanallari orqali olinadigan daromadlarni huquqiy tartibga solish hamda virtual mulk obyekti ustidan mulkiy huquqni belgilash masalasi to'liq shakllanmagan. Shu bois, birinchi navbatda fuqarolik qonunchiligiga virtual mulk tushunchasi kiritilishi, jinoyat huquqi nuqtai nazaridan esa, Jinoyat kodeksida o'zgalar mulkini talon-toraj qilish jinoyatlariga oid normalarni virtual mulkka nisbatan ham qo'llash imkonini beruvchi blanket xususiyatdagi huquqiy mexanizmlar yaratilishi zarur. Xorijiy davlatlar, masalan, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasiga ko'ra, virtual aktivlar va onlayn akkauntlar fuqarolik huquqi obyekti sifatida qonun bilan qo'riqlanadi va ularga qilingan tajovuzlar talon-toraj sifatida kvalifikatsiya qilinadi (masalan, Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik kodeksining 127-moddasi hamda Janubiy Koreya Oliy sudining 2021-yildagi amaliyotida virtual aktivlar va akkauntlar to'laqonli mulk sifatida tan olingan va ularni o'zlashtirish o'g'rilik sifatida kvalifikatsiya qilinadi). Bu harakat o'zining ijtimoiy xavfliligi va iqtisodiy oqibatlariga ko'ra sodir etilishi usuliga qarab o'zgalar mulkini talon-toraj qilish jinoyatlari kabi baholashga olib kelishi lozim.

Ayni paytda bunga misol tariqasida Jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining 2024-yildagi hukmini keltirish mumkin. Ushbu jinoyat ishida sudlanuvchilar uyushgan guruh tuzib, 500 mingdan ortiq obunachiga ega bo'lgan, tijorat maqsadlarida ishlatiladigan yirik Telegram kanalining administratoriga nisbatan virtual shantaj uyushtirib, kanalni o'zlarining boshqaruviga o'tkazib olganlar. Sud mazkur virtual kanalni mulkiy qiymatga ega bo'lgan ne'mat sifatida baholab, aybdorlarni O'zbekiston Respublikasi JKning 278<sup>2</sup>-moddasi (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) bilan javobgarlikka tortgan [9]. Ushbu amaliyot shuni tasdiqlaydiki, virtual mulk, garchi jismoniy shaklga ega bo'lmasa-da, o'zining iqtisodiy foydaliligi va muomala layoqati sababli to'laqonli axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar bo'yicha jinoyat predmeti darajasiga ko'tarilgan. Virtual mulkka qilingan tajovuzlarni faqat «axborotni yo'q qilish» sifatida baholanib kelinmoqda, balki ushbu holatni aynan o'zganing mulkiga qaratilgan tajovuz sifatida ham kvalifikatsiya qilish ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uchun qonunchilikda bunday virtual mulklarni ham iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning predmeti qatoriga kiritishga doir huquqiy asoslarni mustahkamlashi lozim. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, amaliyotda ham bu masalani qonunchilik darajasida yechish zarurati ortib bormoqda.

Axborotning mustaqil jinoyat predmeti sifatidagi o'rnini baholash ham alohida tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Xususan, texnologik taraqqiyot sharoitida axborotning o'zi muhim resurs va, tabiiyki, ko'p tajovuz qilinadigan jinoyat predmetiga aylandi. Axborotning jinoyat predmeti sifatidagi xususiyati olimlar o'rtasida keng muhokama qilinadi. Jumladan, Ozarbayjonlik tadqiqotchi N.G. Nadjafi kompyuter jinoyatlarining predmeti masalasiga to'xtalib, axborotning qimmati uning tabiatida yoki muayyan vazifani hal qilishdagi ahamiyatida ekanligini, uning foydali xususiyatlari faqat tashuvchining fizik butunligiga bog'liq emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kompyuter

axboroti yo'q qilinishi yoki buzilishi mumkin, lekin tashuvchining (masalan, fleshkaning) fizik xususiyatlari o'zgarishsiz qoladi [1. B. 126.]. Shuningdek, R.Aslanyan va A.V.Shulgalar axborotni jamiyatning axborot-psixologik xavfsizligiga qaratilgan jinoyatlarni sodir etish predmeti va vositasi sifatida tahlil qilib, ayrim jinoyat tarkiblarida axborot predmet bo'lsa (masalan, yolg'on xabar tarqatish), boshqalarida vosita bo'lib kelishini qayd etadi [2.].

Biz mazkur olimlarning ilmiy xulosalarini qo'llab-quvvatlaymiz. Boisi axborotni jinoyat predmeti sifatida baholashda uning «konfidensiallik», «yaxlitlik» va «erkin foydalanish imkoniyati» kabi uchta asosiy xususiyatiga qaratilgan tajovuzlarni farqlay bilish kerak. Axborot o'g'irlanganda (nusxalanganda), uning egasi axborotdan mahrum bo'lmaydi, ammo axborotning maxfiyligi buziladi, buning natijasida tijorat yoki davlat siri oshkor bo'lib, zarar keltiriladi. Axborotni jinoyat predmeti sifatida baholashning asosiy mezonlari uning maxfiylik darajasi, iqtisodiy qadr-qimmati va shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlari uchun yuridik ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. Axborotning zaruriy belgilari uning ma'lum bir elektron yoki jismoniy tashuvchida ifodalanishidan qat'i nazar, mustaqil qimmatini saqlab qolishidir. Bu nazariy xulosalarni o'tkazilgan tadqiqot natijalari ham tasdiqladi. Jumladan, tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 79 foizi amaliyotda ma'lumotlar bazalaridan ruxsatsiz nusxa olish holatlarida an'anaviy o'g'rilik alomatlari to'liq namoyon bo'lmasligi sababli huquqiy bo'shliqlar yuzaga kelayotganligini bildirishgan va axborotni mustaqil jinoyat predmeti sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga «Axborot – mustaqil iqtisodiy va huquqiy qiymatga ega bo'lgan, moddiy yoki raqamli tashuvchilarda ifodalangan, maxfiyligi, butunligi ta'minlanishi lozim bo'lgan jinoiy tajovuz obyekti» tarzidagi normani kiritish, shuningdek, JKning 278<sup>2</sup>-moddasiga (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) jinoiy tajovuz bevosita axborotning o'ziga qaratilganda javobgarlikni og'irlashtiruvchi bandlarni qo'shish zarurligini ta'kidlashgan.

Ayni paytda mazkur holat amaliyotda qanday ifodalanadi? Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman sudining hukmida ko'rib chiqilgan ish bunga misol bo'la oladi. Ish hujjatlariga ko'ra, xususiy klinikaning sobiq xodimi ishdan bo'shshdan oldin klinikaning mijozlari haqidagi maxfiy ma'lumotlar bazasini (mijozlarning kasallik tarixlari, telefon raqamlari va to'lovlari haqidagi axborotni) ruxsatsiz nusxalab olib, raqobatchi klinikaga pul evaziga taqdim etgan. Sud ushbu holatda mijozlar bazasini nafaqat tijorat siri, balki mulkiy qiymatga ega bo'lgan jinoyat predmeti sifatida e'tirof etib, aybdorga tegishli jazo tayinlagan [10]. Ushbu holat axborotning o'zi, hech qanday fizik tashuvchisiz ham, jinoyat predmeti bo'la olishini va unga nisbatan qilingan tajovuz real iqtisodiy va ma'naviy zarar keltirishini isbotlaydi.

Yana bir muhokama qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri bu, texnologik taraqqiyot davrida yana qanday ne'matlar jinoyat predmetiga aylanadi? degan savolga ilmiy jihatdan javob berish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotimizning natijalari sifatida, faqat bugungi kun muammolari bilan cheklanib qolmasdan, yaqin 10-15 yil ichida texnologik taraqqiyot natijasida yana qanday ne'matlar jinoyat predmetiga aylanishi mumkinligi haqidagi bashoratlarni ham ilmiy jihatdan tadqiq qilindi. Boisi Jinoyat huquqi fani doimo jamiyat rivojidan bir qadam oldinda yurishi va ehtimoliy xavflarga huquqiy yechimlarni tayyorlab qo'yishi lozim. Olib borgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha quyidagi yangi turdagi ne'matlar tez orada mustaqil jinoyat predmeti sifatida qonunchilikda, ayniqsa jinoyat qonunida o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

Birinchi, neyro-ma'lumotlar va miya-kompyuter interfeysi. Miya-kompyuter interfeysi – bu inson miyasidagi neyron signallarini bevosita kompyuter qurilmalariga uzatuvchi va qabul qiluvchi ilg'or texnologiya hisoblanadi. Jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan bu muhim, chunki neyro-ma'lumotlar insonning shaxsiy xotiralari va fikrlarini ifodalaydi. Ilon Maskning Neuralink kabi loyihalari inson miyasi va kompyuter o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani o'rnatmoqda. Kelajakda insonning o'y-xayollari, hissiyotlari va xotiralari raqamli shaklga o'tkazilishi mumkin. Agar shaxs insonning neyro-implantiga buzib kirib, uning miyasidagi ma'lumotlarni o'qib olsa yoki unga soxta xotiralar/buyruqlar yuborsa, bunday holda qilmishga qanday huquqiy baho berish kerak, bu holatlar biz ko'rib chiqayotgan masala jinoyatning predmeti bo'la oladimi? Bizningcha, bunda jinoyat predmeti sifatida «neyro-axborot» jinoyat predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Bu insonning kelajakda mustahkamlanishi mumkin bo'lgan daxlsiz huquqi (neyro-huquq) hisoblanib, unga qilingan tajovuz

insonning biologik va psixologik mohiyatiga qilingan jinoyat sifatida JKda yangi normalarni kiritishni taqozo etadi. Ushbu qilmish jinoyat qonuni muhofaza qiladigan shaxsning biologik, psixologik daxlsizligi va axborot xavfsizligi jamoat munosabatlariga tajovuz qiladi. Uning ijtimoiy xavfliligi shundaki, huquqbuzar insonning ongini sun'iy tarzda o'zgartirishi va boshqarishi, ruhiy daxlsizlikni buzishi yoki inson xotiralariga noqonuniy egalik qilishi, hatto shaxs orqali boshqalarga badanga shikast yetkazishga olib keluvchi harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qilmishni kriminalizatsiya qilish uchun ushbu neyro-axborotning konfidensialligi buzilishi va unga qilingan tajovuz shaxsning qaror qabul qilish irodasiga salbiy ta'sir etganligi asosiy shart hisoblanadi. So'rovnomada ishtirok etgan yuridik va tibbiyot sohasi mutaxassislarining 73 foizi neyro-huquqlarni himoya qilish hamda neyro-ma'lumotlarni ruxsatsiz o'zlashtirganlik uchun JKda alohida javobgarlik belgilash zaruratini qo'llab-quvvatlaganlar.

Ikkinchidan, Metaolamdagi (metaolam – bu insonlar virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida o'zaro muloqot qiladigan, ishlaydigan hamda raqamli iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiradigan markazlashmagan uch o'lchamli raqamli makon) ko'chmas mulk va aktivlar. Hozirda Decentraland, Sandbox kabi virtual olamlarda odamlar millionlab dollarlarga virtual yer uchastkalari va binolar sotib olmoqdalar. Bu virtual ko'chmas mulklar kelajakda jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotining markaziga aylanadi. Virtual olamdagi obyektlar shunchaki o'yin emas, balki real iqtisodiy munosabatlar maydonidir. Agar shaxs Metaolamdagi o'zganing virtual do'konini yoki galereyasini blokcheyn protokollarini buzish orqali egallab olsa, bu real hayotdagi bosqinchilikka tenglashtiriladigan talon-toraj predmetiga aylanadi. Ushbu holat jinoyat qonuni doirasida shaxslarning raqamli makondagi mulkiy munosabatlarini, axborot tizimlaridan xavfsiz foydalanish tartibini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi. Uning ijtimoiy xavfliligi shaxsning iqtisodiy manfaatlariga yetkaziladigan real moddiy zararda va iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan tahdidda ifodalanadi.

Bu kabi qilmishlarni kelajakda kriminalizatsiya qilishning asosiy sharti sifatida metaolamdagi aktivning qonuniy egasiga yuridik identifikatsiya qilinishi hamda ushbu aktivning sirkulyatsiya qilinadigan aniq bozor qiymatiga ega bo'lishi belgilanishi zarur. O'tkazilgan anketa so'rovlariga ko'ra, tadqiqot ishtirokchilarining 68 foizi kelgusida raqamli makondagi mulklarni talon-toraj qilish yo'li bilan o'zlashtirish uchun jinoiy javobgarlikni o'rnatuvchi maxsus huquqiy normalar yaratilishini maqsadga muvofiq deb topgan. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining O'zgalar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq bobidagi 168-modda (Firibgarlik) va 169-moddalarga (O'g'rilik) «jinoyat virtual makonda, raqamli aktivlar yoki metaolam obyektlariga nisbatan sodir etilgan bo'lsa» degan kvalifikatsiya qilinuvchi belgilarini kiritish yo'li bilan jinoyat-huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, kibernetik analoglar (raqamli nusxalar). Kibernetik analog – bu jismoniy obyektning, infratuzilma tizimining yoki jarayonning real vaqtdagi faoliyatini to'liq aks ettiruvchi raqamli model bo'lib, axborot tarmog'i va sensorlar orqali doimiy ravishda ma'lumot almashib turadi. Jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan, bu shunchaki raqamlashtirilgan ma'lumot emas, balki bevosita real hayotdagi obyektning boshqarish vositasidir. Sanoatda va tibbiyotda biror bir murakkab zavodning yoki inson organizmining to'liq raqamli nusxasi yaratilmoqda. Ushbu kibernetik analoglar orqali real obyektning boshqarish, undagi kasalliklarni yoki nosozliklarni oldindan ko'rish mumkin. Agar terrorchi yoki jinoyatchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan elektr stansiyasining yoki yuqori lavozimli shaxsning tibbiy «raqamli nusxasi»ni o'g'irlasa yoki unga o'zgartirish kiritisa, buning oqibatida real hayotda halokatlardan sodir bo'lishi mumkin. Demak, kibernetik analoglar xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan mustaqil jinoyat predmeti sifatida jinoyat-huquqiy muhofazaga olinishi shart. Ushbu turdagi tajovuz jinoyat qonuni muhofaza qiladigan jamoat xavfsizligi, strategik obyektlarning uzluksiz faoliyati hamda shaxs hayoti va sog'lig'iga oid ijtimoiy munosabatlarga qaratiladi.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi kiberhujum oqibatida real fizik infratuzilmada texnogen halokatlardan, avariylar yuzaga kelishi yoki qurbonlar bo'lish ehtimolidan iboratdir. Qilmishni kriminalizatsiya qilish sharti kibernetik analogga qilingan noqonuniy aralashuvning jismoniy obyekt faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir etish xavfi hisoblanadi. So'rovnomada natijalari ham



tasdiqlaydiki, ishtirokchilarning 84 foizi muhim infratuzilma obyektlarining kibernetik analoglariga qilingan tajovuzlarni bevosita terrorizm yoki sabotaj harakatlari kabi og'ir turdagi jinoyat predmeti sifatida tasniflanishini va qonunda belgilanishini yoqlab chiqqanlar.

To'rtinchidan, genomik va bioinformatika ma'lumotlari. Genomik ma'lumotlar – bu shaxsning DNK tuzilishi, irsiy xususiyatlari va genetik holati haqidagi biologik axborotning raqamli bazalardagi jamlanmasidir. Bu ma'lumotlar insoniyat genofondini va daxlsizlikni biologik darajada ifodalaganligi uchun ularni jinoyat-huquqiy jihatdan himoya qilish muhim e'tibor talab etadi. Shaxsning DNK ketma-ketligi va genetik moyilliklari haqidagi ma'lumotlar tibbiyotning rivojlanishi bilan raqamli bazalarda saqlanmoqda. Bu axborot oddiy shaxsga doir ma'lumotlardan farqli o'laroq, insonning nafaqat o'zi, balki uning avlodlari haqidagi sirlarni ham ochadi. Ushbu ma'lumotlarni o'g'irlash orqali biologik qurollar yaratish yoki shaxsga nisbatan genetik shantaj uyushtirish mumkin. Shu bois, genomik axborot kelajakda insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning asosiy predmetiga aylanadi.

Mazkur qilmish bevosita insoniyat xavfsizligi, shaxsning irsiy daxlsizligi va sog'liqni saqlash sohasidagi jamoat munosabatlarini nishonga oladi. Uning ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu orqali genetik manipulyatsiyalar amalga oshirish, bioterrorizm va kelajak avlodlar salomatligiga zarar yetkazilishi mumkin. Uni kriminalizatsiya qilish uchun genomik ma'lumotlarning noqonuniy nusxalanishi, tarqatilishi yoki ommaviy xavf tug'diruvchi maqsadlarda foydalanilishi asos qilib olinadi. O'tkazilgan ilmiy so'rovda qatnashgan mutaxassislarning 88 foizi genomik ma'lumotlarni ehtiyot qilinishi lozim bo'lgan alohida jinoyat predmeti sifatida tizimlashtirishni taklif etishgan. Mazkur normani O'zbekiston Respublikasi JKning «Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» bobi doirasida «Genomik va bioinformatika ma'lumotlarini qonunga xilof ravishda yig'ish, o'g'irlash, tarqatish yoxud ulardan ommaviy xavf tug'diruvchi biologik maqsadlarda foydalanish» degan mustaqil modda ko'rinishida shakllantirish ushbu ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar, mavjud muammolarning nazariy tahlili hamda amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasiga ko'ra, texnologik taraqqiyot sharoitida jinoyat predmetining evolyutsiyasi yuzasidan quyidagi yakuniy xulosa va takliflarni ilgari suramiz:

Birinchidan, texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish sharoitida jinoyat predmetining evolyutsiyasi uning jismoniy-moddiy shakldan virtual, raqamli, intellektual va axborot shakllariga o'tishi bilan bevosita tavsiflanadi. Zamonaviy jinoyat huquqida jinoiy tajovuz obyektsiz jinoyatlar mavjud emas, biroq jinoyat predmetining tabiati va namoyon bo'lish shakli o'zgardi. Sun'iy intellekt algoritmlari, kripto-aktivlar, virtual mulk va axborotning mustaqil iqtisodiy, ijtimoiy va yuridik qiymatiga ega ekanligi sababli, ularni axborot texnologiyalari davridagi jinoyat predmetining yangi turlari sifatida e'tirof etish ilmiy jihatdan asoslangan huquqiy reallikdir.

Ikkinchidan, milliy jinoyat qonunchiligimizda tushunchalar apparatini zamon talablariga moslashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga qonun bilan qo'riqlanadigan mulk va jinoyat predmeti tushunchalarini kengaytiruvchi maxsus norma kiritish lozim. Xususan, ushbu qismda «Jinoyat predmeti – bu jinoiy tajovuz bevosita qaratilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning moddiy, elektron-raqamli, energetik yoki axborot shaklidagi ifodasi bo'lib, u o'z ichiga raqamli aktivlar, virtual mulk, kripto-aktivlar, axborot resurslari va sun'iy intellekt tizimlarini ham qamrab oladi» degan qoidani mustahkamlash zarur.

Uchinchidan, fuqarolar va yuridik shaxslarning raqamli makondagi daxlsizligini kafolatlash uchun O'zbekiston Respublikasi JKning O'zgaralar mulkini talon-toraj qilish jinoyat tarkiblarining kvalifikatsiya qilinuvchi belgilari qatoriga «axborot tizimlaridan foydalanib, virtual mulk yoki raqamli aktivlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa» degan yangi bandlarni kiritish lozim. Bu amaliyotda kiberjinoyatlarni shunchaki kompyuter tizimidan ruxsatsiz foydalanish qoidalarini buzish sifatida emas, balki ularning asl mohiyatiga ko'ra – mulkni talon-toraj qilish sifatida kvalifikatsiya qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, axborotning mustaqil jinoyat predmeti sifatidagi huquqiy maqomini aniqlashtirish talab etiladi. Axborot qonunga xilof ravishda o'zlashtirilgan yoki buzilgan taqdirda yetkazilgan zararni obyektiv baholash mexanizmlarini yaratish, shuningdek, JKning 278<sup>2</sup>-moddasiga



jinoiy tajovuz aynan yuridik yoxud iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan maxfiy axborotga qaratilganligini ifodalovchi tegishli sanksiyalarni belgilash huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etadi.

Beshinchidan, yaqin kelajakda paydo bo'lishi kutilayotgan xavfli tajovuzlar (neyro-jinoyatlar, metaolamdagi talon-torjliklar, muhim obyektlarning kibernetik analoglariga – raqamli nusxalariga hujumlar va genomik ma'lumotlarni o'g'irlash) bo'yicha oldini oluvchi qonunchilik choralarini ko'rish lozim. Jumladan, JKning «Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» hamda «Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» bo'limlariga strategik obyektlarning raqamli nusxalariga ruxsatsiz aralashish va inson bioinformatikasiga qilingan tajovuzlar uchun og'ir jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi mustaqil normalarni kiritish taqozo etiladi.

## Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Наджафи Гусейн М. Предмет компьютерных преступлений // Вестник Института законодательства Республики Казахстан. – 2012. – № 4 (28). – С. 125-127 (Najafi Hussein M. The Subject of Computer Crimes // Bulletin of the Institute of Legislation of the Republic of Kazakhstan. - 2012. - No. 4 (28). - P. 125-127.).
2. Асланян Р. Г. Информация как предмет и средство совершения преступлений в сфере экономической деятельности. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук // URL: <http://crimestience.ru/wp-content/uploads/2016/07/Автореф-Информационная-преступность.pdf>. Шульга, А. В. Информация имущественного характера как предмет преступлений против собственности / А. В. Шульга // Уголовное право. – 2010. – № 1. – С. 65-69 (Aslanyan R. G. Information as a Subject and Means of Committing Crimes in the Sphere of Economic Activity. Abstract of Dissertation ... candy. a walk through science // URL: <http://crimestience.ru/wp-content/uploads/2016/07/Avtoref-Informationnaya-prestupnost.pdf>. Shulga, A. V. Property Information as a Subject of Crimes against the Person / A. V. Shulga // Criminal Law. - 2010. - No. 1. - P. 65-69).
3. Куликова А.А., Жмурко Р.Д. Криптовалюта как предмет преступления: проблемы квалификации и защиты // Вестник Алтайской академии экономики и права. 2020. № 11-2. С. 376-381 (Kulikova A. A., Zmurko R. D. Cryptocurrency as a Subject of Supply: Problems of Qualification and Protection // Bulletin of the Altai Academy of Economics and Law. 2020. No. 11-2. Pp. 376-381) URL: <https://vaael.ru/ru/article/view?id=1436>
4. Науменко О.А., Бутяева Н.А. Криптовалюта как предмет и средство совершения преступлений // Вестник Краснодарского университета МВД России. – 2022. – № 2 (56). – С. 48-51. (Naumenko O. A., Butyaeva N. A. Cryptocurrency – the subject and means of law enforcement // Bulletin of the Krasnodar University of the Ministry of Internal Affairs of Russia. - 2022. - No. 2 (56). - Pp. 48-51)
5. Аджиев Н.Б. Криптовалюта как предмет преступлений против собственности // Международный научно-исследовательский журнал. – 2023. – № 8 (134). – С. 1-4 (Adzhiev N. B. Cryptocurrency as crimes against property // International research journal. - 2023. - No. 8 (134). - Pp. 1-4).
6. Шабалина К.В. Искусственный интеллект как предмет преступления // Уральский государственный юридический университет имени В.Ф. Яковлева. – 2023. – С. 397-408 (Shabalina K. V. Artificial intelligence as the subject of crime // Ural State Law University named after V. F. Yakovlev. - 2023. - Pp. 397-408).
7. O'zbekiston Respublikasi sud hujjatlarini internet tarmog'ida chop etish bazasi: Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining hukmi (Ish № 1-1002-2403/123) (Database of online publications of judicial documents of the Republic of Uzbekistan: Decision of the Mirzo-Ulugbek District Court on Criminal Cases (Case No. 1-1002-2403/123)) // URL: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
8. O'zbekiston Respublikasi sud hujjatlarini internet tarmog'ida chop etish bazasi: Jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod tuman sudining hukmi (Ish № 1-1001-2501/456) (Database of online

publications of judicial documents of the Republic of Uzbekistan: Decision of the Yunusabad District Court on Criminal Cases (Case No. 1-1001-2501/456)) // URL: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

**9.** O‘zbekiston Respublikasi sud hujjatlarini internet tarmog‘ida chop etish bazasi: Jinoyat ishlari bo‘yicha Shayxontohur tuman sudining hukmi (Ish № 1-1003-2401/789) (Database of online publications of judicial documents of the Republic of Uzbekistan: Decision of the Shaykhontohur District Court on Criminal Cases (Case No. 1-1003-2401/789)) // URL: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

**10.** O‘zbekiston Respublikasi sud hujjatlarini internet tarmog‘ida chop etish bazasi: Jinoyat ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tuman sudining hukmi (Ish № 1-1004-2405/321) (Database of online publications of judicial documents of the Republic of Uzbekistan: Decision Yakkasaroy District Criminal Court (case No. 1-1004-2405/321)) // URL: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

**11.** Hallevy, Gabriel (2010) “The Criminal Liability of Artificial Intelligence Entities - from Science Fiction to Legal Social Control,” Akron Intellectual Property Journal: Vol. 4: Iss. 2, Article 1. Available at: <https://ideaexchange.uakron.edu/akronintellectualproperty/vol4/iss2/1>

**12.** LIU Xianquan, HE Yangyang. The Adjustment of the Elements of the Crime of Infringing on Citizens’ Personal Information from the Perspective of The Personal Information Protection Law[J]. Journal of South China normal University (Social Science Edition), 2022, (1): 141-154.

**13.** Fox D., Green S. Cryptocurrencies in Public and Private Law // Oxford University Press. 2019. URL: <https://global.oup.com/academic/product/cryptocurrencies-in-public-and-private-law-9780198826385?cc=uz&lang=en&>

**14.** Fairfield J. A. T. Virtual Property // Boston University. 2005. URL: <https://www.bu.edu/law/journals-archive/bulr/volume85n4/FAIRFIELD.pdf>

**15.** Lastowka G., Hunter D. The Laws of the Virtual Worlds // University of California, Berkeley. 2004. URL: <https://lawcat.berkeley.edu/record/1119331/files/fulltext.pdf>

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

## Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

## Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

## Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.